

Elektron Biznes Raqamli Iqtisodiyotni Rivojlantiruvchi Asosiy Omil

*Raxmonqulova Nafisa Olimjon qizi*¹

Annotatsiya: Ushbu maqolada elektron biznesning raqamli iqtisodiyotni tutgan o'rnini xususida mulohazalar berilgan. Elektron biznes mintaqaning rivojlanishining omili sifatida e'tirof etilgan. Elektron biznesning marketingdagi o'rnini yuqori baholanganligi faktlar asosida isbotlandi.

Kalit so'zlar: segment, onlayn marketing, elektron biznes, global-telekommunikatsiya, kompyuter texnologiyalari.

Bugungi kunga kelib jahondagi barcha rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotini raqamlashtirdi desak noto'g'ri bo'lmaydi. Tabiiyki, XX asrning 60-yillarida g'arb davlatlarida kompyuter texnologiyalarining tarqalishi, raqamli iqtisodiyot bilan bir qatorda elektron tijorat sohasi ham rivojlanishining bosh me'zoni bo'ldi. Albatta bizning yurtimizda ham soha rivoji uchun keng ko'lamlı ishlar amalga oshirilmoqda. So'zimizning isboti sifatida yurtboshimizning: Tarmoq va hudud rahbarlari raqamlashtirishsiz natija, rivojlanish bo'lmasligini tushunib yetishi shart. Barcha darajadagi rahbarlar buni o'ziga kundalik vazifa sifatida belgilab, raqamlashtirish sohasini alifbosidan boshlab chuqur o'rganishi kerak" degan fikrlarini keltirishimiz mumkin.² Berilayotgan e'tiborga qaramasdan mazkur yo'nalishda o'z faoliyatlarini boshlamoqchi bo'layotgan tadbirkorlar o'zbek segmentida yetarlicha ma'lumotlar topishlarida muammolarga duch kelishmoqda. Raqamli iqtisodiyot hamda, elektron tijorat borasida qilingan nazariy va amaliy ishlarni tahlil qilgan holda yangidan-yangi takliflar va metodlarni yaratish borasida bir qancha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Darhaqiqat, tijorat borasida amalga oshirilayotgan islohatlar elektron biznes"ning rivojlanishiga, iqtisodiyot tarmoqlarining takomillashishiga yordam beradi. Elektron biznes nima, u qanday paydo bo'lgan?

Elektron biznes bu internet orqali amalgam oshiriladigan tijorat turi. Bu tijorat turi keng va tor ma'noda qo'llaniladi. "Elektron biznes"ning paydo bo'lishi muomalaga yangi atamalar, kategoriyalar va tushunchalar kiritilishi bilan bog'liq. Hozirda yangi tushunchalar paydo bo'ldi: elektron magazin, elektron vitrina, elektron pullar, elektron to'lov tizimlari, elektron raqamli imzo va h. k.

O'z navbatida keng qamrovli xizmat korporativ mijozlarga ham, oxirgi iste'molchiga ham xizmat ko'rsatadigan Internet-vositachilar paydo bo'lmoqda. Ular avtomatlashtirilgan axborot kanallari orqali mijozlariga xizmat ko'rsatish boyicha quyidagi ishlarni olib boradi:

- sotishdan oldin ishlar potensial xaridorlar va buyurtmachilar bilan ishlash;
- onlayn marketing;
- onlayn buyurtmalar (bevosita bitim bilan bog'liq vazifalari);
- xizmat xaridorlar va iste'molchilar;
- maxfiy axborotni muhofaza qilish;
- moliyaviy xizmatlar;
- buyurtmalarni bajarish bilan bog'liq onlayntranzaksiyalarning tarkibiy qismlari;
- sotishdan keyingi ishlar buyurtma, hisob-kitob, almashtirish, nizolarni hal qilish holatini kuzatish.³

¹ Osiyo xalqaro universiteti Iqtisodiyot kafedrası o'qıtuvchısı

² O'zbekiston Respublikası Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2022-yil 22-sentyabr kuni tarmoq va hududlarda raqamli iqtisodiyot hamda elektron hukumatni joriy qilish masalalari bo'yicha videoselektor yig'ilishidan

³ Digital 2019: global digital overview. Value creation and capture: implications for developing countries. UNCTAD, 2020.



O‘zbekistonda elektron tijorat sohasi o‘zining rivojlanish bosqichida turibdi. Bugungi kunda elektron tijorat hajmi mamlakat YaIM ning bir foizga yaqinini tashkil etadi. Elektron tijoratni yanada rivojlantirish uchun unga ta‘sir etuvchi omillarni aniqlash, ular orasida bog‘lanishlar ko‘rinishini tadqiq qilish va shu asosda kelgusi davrlarga prognozlash zarur. Ular jumlasiga internetdan foydalanuvchilar soni, internet xizmatlar tariflari qiymati, internet do‘konlar soni, elektron tijorat bo‘yicha tranzaksiyalar, elektron tijorat bo‘yicha tranzaksiyalar hajmi, POS terminallar orqali amalga oshirilgan umumiy tranzaksiyalar, plastik kartalar soni, plastik kartalar bilan tranzaksiyalar hajmi, bankomatlar va infokioskalar soni va boshqa bir qator omillarni keltirish mumkin. Axborot texnologiyalarining tez rivojlanishi iqtisodda ham o‘z aksini topmasdan qolmaydi.⁴ Hozirgi kunda iqtisodda, ayniqsa tadbirkorlik sohasida erishilayotgan yutuqlar negizida aynan axborot texnologiyalari turli segmentlarining yuqori darajada rivojlanganligi va samarali qo‘llanishi yotadi. O‘zbekiston iqtisodiyoti ham bundan mustasno emas albatta. Yaqqol misol sifatida axborot texnologiyalarining bir qator segmentlari masalan, ma‘lumotlar yetkazish tarmoqlari, axborot internet-resurslari va ular orasidagi elektron hujjat almashuv, biznes va tijoratning barqaror rivojlanayotganini keltirish mumkin. O‘zbekiston uchun axborot texnologiyalarini rivojlantirish yangi iqtisodiy aloqalarni ta‘minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Lekin bu jarayon, axborot texnologiyalari sohasida ta‘lim standartlarining oshishi, milliy telekommunikatsiya tarmoqlarining modernizatsiyalashuvi, huquqiy bazaning shakllanishi oqibatida vujudga keladigan jamiyatning ma‘lum darajadagi informatsion tayorligi mavjud bo‘lgan holatdagina sodir bo‘ladi. O‘zbekiston iqtisodiyotining ham bosqichma-bosqich rivojlanishi oqibatida biznes faoliyatini yuritishning yangi prinsiplari, ayniqsa elektron tijoratning ahamiyati juda oshdi. Bugungi kunga kelib, har bir internet foydalanuvchisi elektron tijorat so‘zining ma‘nosini tushunishga harakat qilib ko‘rgan. Hali o‘zining uzoq tarixini qurishga ham ulgurmagan bunday faoliyat bilan bog‘liq AQSh bozorlarida yiliga o‘rtacha 1,5-2 trln. AQSh dollari miqdorida mablag‘lar aylanadi.

O‘zbekistonda elektron biznes hali Internet orqali amalga oshiriladigan oldi-sotdi harakatlari hamda ishbilarmon bitimlar imzolashning keng tarqalgan shakliga aylanganicha yo‘q. Bugungi kunda O‘zbekiston elektron biznes tizimi infratuzilmasi elementlarini ishlab chiqish va ulardan foydalanish borasida rivojlangan mamlakatlardan sezilarli darajada orqada qolmoqda. Milliy iqtisodiyotning yetarli darajada rivojlanmaganligi sababli O‘zbekiston jahonda yangi iqtisodiy tartibni shakllantirishda juda kam ishtirok etmoqda. Uning asosini esa eng yangi axborot texnologiyalari, global telekommunikatsiya tarmog‘i tashkil qiladi.⁵

Raqamli iqtisodiyotga bo‘lgan qiziqish jamiyat va iqtisodiyotda ro‘y bergan jiddiy o‘zgarishlar tufayli sezilarli darajada o‘tdi. Zamonaviy texnologiyalar va platformalar mijozlar, hamkorlar va davlat tashkilotlari bilan shaxsiy muloqotni minimallashtirish hisobiga korxonalar va jismoniy shaxslarga xarajatlarni qisqartirishga yordam berdi, shuningdek, o‘zaro muloqotni yanada tez va oson yo‘lga qo‘yishga imkoniyat yaratdi. Natijada tarmoq resurslariga asoslangan, raqamli yoki elektron iqtisodiyot paydo bo‘ldi.⁶

Shubhasiz, raqamli iqtisodiyotning samaradorligiga nafaqat axborot texnologiyalarining qamrovi va infratuzilmaning mavjudligi, balki ishbilarmonlik muhiti, inson kapitali va muvaffaqiyatli boshqaruv instrumentlari kabi standart iqtisodiy mezonlar ham ta‘sir ko‘rsatadi. Binobarin, iqtisodiy taraqqiyot aynan ularga tayanadi, bu esa ushbu mezonlarning raqamli iqtisodiyot rivojlanishida avvalgiday muhim o‘rin tutishini bildiradi.

Elektron biznes amalga oshirilishi mumkin bo‘lgan faoliyatning asosiy sohalariga quyidagilar kiradi:

1. elektron marketing (Internet-marketing);
2. elektron magazinlarni tashkil qilishni moliyalashtirish, shuningdek, ularni sug‘urta qilish;
3. buyurtma olish, tovarni sotish va to‘lovdan iborat biznes operatsiyalari;

⁴ G.M. Porsaev, B.Sh. Safarov, D.Q. Usmanova. Raqamli iqtisodiyot asoslari 2020-yil.

⁵ Elektron biznes asoslari. A. T. Kenjaboyev. Toshkent: “Iqtisod-moliya”. 2008. 45-bet.

⁶ www.kun.uz



4. bir nechta kompaniya tomonidan yangi mahsulot yoki xizmatni birgalikda ishlab chiqish;
5. mahsulotni birgalikda ishlab chiqarishni tashkil qilish;
6. biznes ma'muriyati (soliqlar, bojxona, ruxsatlar, konsessiyalar va h.k.);
7. transport xizmatlari, yuk tashish texnikasi va ta'minot usullari.

Tadqiqotlar davomida elektron biznesni quyidagi guruhlariga bo'ldik:

1. Internetda biznes;
2. Internet atrofida biznes;
3. Internet biznes.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish borasida elektron biznesning ahamiyati katta. Iqtisodiyoti jadal sur'atlarda rivojlangan mamlakatlarda ham elektron biznes asosiy vazifani bajaradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2022-yil 22-sentyabr kuni tarmoq va hududlarda raqamli iqtisodiyot hamda elektron hukumatni joriy qilish masalalari bo'yicha videoselektor yig'ilishidan
2. Digital 2019: global digital overview. Value creation and capture: implications for developing countries. UNCTAD, 2020.
3. G.M. Porsaev, B.Sh. Safarov, D.Q. Usmanova. Raqamli iqtisodiyot asoslari 2020-yil.
4. Elektron biznes asoslari. A. T. Kenjaboyev. Toshkent: Iqtisod-moliya. 2008. 45-bet.
5. www.kun.uz
6. Abdulloev, A. J., & Rakhmankulova, N. O. THEORETICAL ASPECTS OF THE INNOVATIVE ENTREPRENEURSHIP CONCEPT.
7. Орипов, М. А., Аминова, Н. Б., & Рахманкулова, Н. О. (2020). Экологически чистое и устойчивое управление цепочками поставок в экономике платформы. Вестник науки и образования, (13-2 (91)), 28-30.
8. Явмутов, Д. Ш., & Рахманкулова, Н. О. (2021). КОНЦЕПТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ РАСЧЕТА ПРОДУКЦИИ В ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКЕ. ИТМОИУ FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIIY JURNALI, 1(2), 12-17.
9. Alisher Khudoynazarovich Shadiyev. (2023). FUNCTIONS, METHODS, MANAGEMENT DECISIONS AND SOCIAL FACTORS OF EDUCATIONAL MANAGEMENT. American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157), 1(9), 87-93.
10. Shadiyev, A. (2022). EXPERIENCE IN THE DEVELOPMENT OF SINGAPORE TOURISM IN UZBEKISTAN. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz), 23(23).
11. Shadiyev, A. K. (2021). Development and organization catering service in hospitality. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(5), 381-387.
12. Bazarova, M. (2023). EFFECTIVENESS OF USING PR-ADVERTISING SERVICES IN THE PROCESS OF PRODUCT DELIVERY ON THE EXAMPLE OF BUKHARA REGION. Modern Science and Research, 2(10), 798-804.
13. Supieva, B. M. (2023). USING EFFECTIVE WAYS OF CONDUCTING MARKETING RESEARCH IN INTERNATIONAL COMPANIES. Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, 11(6), 624-629.
13. Bakhodirovich, K. B. (2023). International accounting models and their characteristics in the conditions of innovative economy. Zien Journal of Social Sciences and Humanities, 21, 56-60.



14. Bakhodirovich, K. B. (2023). CONCEPTUAL FOUNDATIONS OF IMPROVING ACCOUNTING IN SMALL BUSINESS AND PRIVATE ENTREPRENEURSHIP. *IMRAS*, 6(6), 161-165.
15. To'rayevna, S. N. . (2023). Biznes Sohasida Xodimlarni Topish Va Tanlash Bosqichlari. *Miasto Przyszłości*, 41, 184–190.
16. Sodiqova, N. (2023). DIGITAL LABOR IN THE NEW ECONOMY. *Modern Science and Research*, 2(10), 293–300.
17. Toshov, M. (2023). PERSONNEL MANAGEMENT AND THEIR EVALUATION IN MANAGEMENT. *Modern Science and Research*, 2(10), 535–541.
18. Hakimovich, T. M. (2023). IQTISODIYOTDA MENEJMENTNING AHAMIYATI. *Gospodarka i Innowacje.*, 41, 84-87.
19. Akbarovna, N. N. (2023). RAQAMLI IQTISODIYOTDA MOLIYA VA MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALARNING ORNI. *Gospodarka i Innowacje.*, 41, 446-449.
20. Bahromjon, X., & Nargiza, N. . (2023). THE PROCEDURE FOR DRAWING UP FINANCIAL STATEMENTS IN JOINT-STOCK COMPANIES ON THE BASIS OF INTERNATIONAL FINANCIAL REPORTING STANDARDS. *Modern Science and Research*, 2(10), 805–811.
21. Алимова Ш. А., Ниёзова И. Н. Бизнес-коммуникации в системе управления промышленных структур //Academy,(1 (64)). – 2021. – С. 55-57.
22. Alimova S. O. FEATURES OF THE STRATEGIC MANAGEMENT SYSTEM OF INDUSTRIAL ENTERPRISES.
23. Jumaeva, Z. Q. "REGIONAL FEATURES OF INVESTMENT POLICY OF UZBEKISTAN." *Central Asian Problems of Modern Science and Education 2020.1* (2020): 48-55.
24. Bustonovna, D. Z. (2023). DIGITAL TECHNOLOGIES IN SHAPING THE E-COMMERCE ENVIRONMENT. *Gospodarka i Innowacje.*, 41, 316-320.
25. Jumayeva, Z. (2023). THEORY OF MARKET EQUILIBRIUM, SUPPLY AND DEMAND. *Modern Science and Research*, 2(10), 740–743.
26. Sh, Y. D., & Rakhmanqulova, N. O. (2021). XUSUSIY SHERIKCHILIK VA TURIZM KLASTERI SOHASIDAGI TADBIRKORLIK RIVOJIDA DAVLATNING O'RNI. *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI*, 1(2), 73-76.
27. Явмутов, Д. Ш., & Ракхманкулова, Н. О. (2021). Бухоро Вилятида Кичик Саноат Зоналарининг Ривожланиши. *BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMIY JURNALI*, 1(2), 10-13.

